



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....  | 10 |
| <i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>   |    |
| Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi ..... | 13 |
| <i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>  |    |
| Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....  | 18 |
| <i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>  |    |
| Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....  | 22 |
| <i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>  |    |
| PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....  | 25 |
| <i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>  |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....   | 28 |
| <i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>   |    |
| Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....  | 32 |
| <i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>   |    |
| Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....   | 36 |
| <i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>   |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....                        | 40 |
| <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>  |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....  | 43 |
| <i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>   |    |
| Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....  | 47 |
| <i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>   |    |
| Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....                           | 51 |
| <i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>   |    |
| Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....  | 55 |
| <i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>   |    |
| Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....               | 58 |
| <i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>  |    |
| Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....                                  | 61 |
| <i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>  |    |
| Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....   | 64 |
| <i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>   |    |
| Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....  | 69 |
| <i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>   |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....   | 76 |
| <i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>   |    |
| Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....   | 80 |
| <i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>  |    |
| Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....   | 85 |
| <i>Manzura Qosmuratova</i>   |    |



|  |     |
|--|-----|
| Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....   | 89  |
| <i>A. S. Umarov</i>  |     |
| Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом<br>для углублённого изучения математики в школе .....   | 92  |
| <i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>  |     |
| Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....  | 97  |
| <i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>  |     |
| Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....  | 102 |
| <i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>   |     |
| Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini<br>rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....  | 106 |
| <i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>  |     |
| Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....  | 111 |
| <i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>   |     |
| Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....  | 117 |
| <i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali<br>pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....                                | 122 |
| <i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....  | 126 |
| <i>Haytbayeva S. R.</i>  |     |
| Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali<br>intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....                                   | 131 |
| <i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>  |     |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida<br>kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....   | 134 |
| <i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>  |     |
| Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....   | 139 |
| <i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>   |     |
| Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....  | 145 |
| <i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....  | 150 |
| <i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>  |     |
| Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....   | 155 |
| <i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>   |     |
| O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....  | 159 |
| <i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>   |     |
| Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....  | 164 |
| <i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>  |     |
| Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning<br>kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ..... | 168 |
| <i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>  |     |
| Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....   | 173 |
| <i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>   |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....  | 178 |
| <i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>  |     |
| Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....  | 183 |
| <i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>   |     |
| Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....   | 187 |
| <i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>   |     |
| Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....   | 190 |
| <i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>  |     |

|                                     |   |     |
|-------------------------------------|---|-----|
| MUNDARIJA<br>СОДЕРЖАНИЕ<br>CONTENTS | O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194<br><i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>  | 194 |
|                                     | Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198<br><i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>  | 198 |
|                                     | Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili ..... 202<br><i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>  | 202 |
|                                     | Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means ..... 205<br><i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>   | 205 |
|                                     | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208<br><i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>  | 208 |
|                                     | Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212<br><i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>   | 212 |
|                                     | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati ..... 216<br><i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>   | 216 |
|                                     | Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221<br><i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>         | 221 |
|                                     | Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication ..... 224<br><i>Fayziyeva Parvina</i>  | 224 |
|                                     | Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi ..... 227<br><i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>  | 227 |
|                                     | Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235<br><i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>   | 235 |
|                                     | Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238<br><i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>   | 238 |
|                                     | Spheres of Language Use..... 243<br><i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>  | 243 |
|                                     | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246<br><i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>                                    | 246 |
|                                     | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251<br><i>N. Jurayev</i>  | 251 |
|                                     | Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil ..... 255<br><i>Nargiza Ergasheva</i>   | 255 |
|                                     | Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli ..... 259<br><i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>                                       | 259 |
|                                     | Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) ..... 264<br><i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i> | 264 |
|                                     | O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi ..... 269<br><i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>  | 269 |
|                                     | Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273<br><i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>  | 273 |
|                                     | Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278<br><i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>   | 278 |
|                                     | Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282<br><i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>                             | 282 |
|                                     | Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 285<br><i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>  | 285 |



|   |     |
|---|-----|
| Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...                             | 289 |
| <i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>  |     |
| Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....  | 293 |
| <i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>  |     |
| Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....  | 296 |
| <i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....  | 300 |
| <i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>   |     |
| Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....                           | 303 |
| <i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>   |     |
| Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка:<br>адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции ..... | 308 |
| <i>Джалилова Феруза Намазовна</i>   |     |
| Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические<br>и методические аспекты.....                                      | 312 |
| <i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>  |     |
| Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....   | 317 |
| <i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>  |     |
| Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....   | 319 |
| <i>Рахимходжаева В. С.</i>  |     |
| Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....  | 325 |
| <i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>   |     |



## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Sultanova Sahobar Ravshanbekovna

Vatan universiteti "ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-1996-3527

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari hamda uning ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ kompetensiyaning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri, innovatsion ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari hamda interfaol metodlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kreativ ta'lim muhitini yaratishning nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan. Muallif tomonidan kreativ yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligi, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kreativ kompetensiya zamonaviy ta'lim sifatini oshiruvchi strategik omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kreativ kompetensiya, pedagogik innovatsiya, interfaol metodlar.

**Abstract:** This article scientifically analyzes modern pedagogical mechanisms for developing creative competence in future teachers and its social significance. The study highlights the impact of creative competence on teaching effectiveness, the potential of innovative educational technologies, and the role of interactive teaching methods. Particular attention is paid to the theoretical and practical foundations of creating a creative educational environment in pedagogical higher education institutions. The author substantiates the importance of creative approaches in developing professional flexibility, independent thinking, and decision-making skills in problematic situations. The research findings indicate that creative competence is one of the strategic factors for improving the quality of modern education.

**Key words:** creative competence, pedagogical innovation, interactive methods.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются современные педагогические механизмы формирования креативной компетентности будущих учителей и их социальная значимость. В исследовании раскрываются влияние креативной компетентности на эффективность педагогической деятельности, возможности инновационных образовательных технологий и роль интерактивных методов обучения. Особое внимание уделено теоретическим и практическим основам создания креативной образовательной среды в педагогических вузах. Автор обосновывает значение креативного подхода в развитии профессиональной мобильности, самостоятельного мышления и способности принимать эффективные решения в проблемных ситуациях. Результаты исследования показывают, что креативная компетентность является одним из стратегических факторов повышения качества современного образования.

**Ключевые слова:** креативная компетентность, педагогические инновации, интерактивные методы.

### KIRISH

XXI asr ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining keskin ortishi natijasida an'anaviy bilim berish modeli asta-sekin kompetensiyaviy yondashuv bilan almashmoqda. Mazkur jarayonda pedagog shaxsining kreativ salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi subyekt, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, innovatsion qarorlar qabul qilishga va ijtimoiy moslashuvchanlikka yo'naltiruvchi ijodiy shaxs sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida oldida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini xalqaro ta'lim standartlari asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, kreativlik kompetensiyasi pedagogning kasbiy muvaffaqiyati, pedagogik moslashuvchanligi hamda innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.



**Tadqiqotning obyekti** – pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** – bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari.

**Tadqiqotning maqsadi** – kreativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- kreativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni aniqlash;
- pedagogik kreativlikning kasbiy faoliyatdagi o'rnini asoslash;
- kreativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik fenomeni dastlab psixologik kategoriya sifatida Graham Wallas, Joy Paul Guilford va Ellis Paul Torrance tadqiqotlarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Joy Paul Guilford divergent tafakkur nazariyasini ishlab chiqib, kreativlikni muammoning bir nechta original yechimlarini topa olish qobiliyati sifatida talqin etgan. Ellis Paul Torrance esa kreativ fikrlashning diagnostik mezonlarini ishlab chiqib, ta'lim tizimida ijodiy yondashuvning amaliy asoslarini shakllantirgan <sup>[1]</sup>.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda kreativ kompetensiya ko'proq kompetensiyaviy ta'lim paradigmasi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Robert Sternberg kreativlikni "muvaffaqiyatli intellekt" konsepsiyasi bilan izohlab, insonning noan'anaviy fikrlash va moslashuvchan qaror qabul qilish qobiliyatlarini kreativlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida belgilaydi <sup>[2]</sup>.

Ken Robinson esa ta'lim tizimida standartlashtirilgan yondashuv kreativ tafakkur rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, kreativ muhitni shakllantirish zarurligini ilgari suradi <sup>[3]</sup>.

O'zbek olimlari tomonidan ham pedagogik kreativlik masalasi faol tadqiq qilinmoqda. N. Muslimov pedagogik kompetentlikni zamonaviy pedagog faoliyatining integral tavsifi sifatida izohlaydi va kreativ kompetensiyani uning tarkibiy elementi sifatida baholaydi <sup>[4]</sup>.

O'. Tolipov hamda M. Usmonboyeva interfaol texnologiyalarning talabalarda mustaqil fikrlash va kreativlikni rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy asoslaydi <sup>[5]</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetensiya masalasi ko'plab ilmiy ishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, anketa so'rovi va statistik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 3–4-bosqich talabalari tashkil etdi. Dastlab talabalarining kreativ kompetensiyasini aniqlash maqsadida diagnostik savolnomalar ishlab chiqildi.

So'rovnoma natijalari kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashish va innovatsion yondashuv ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba-sinov mashg'ulotlarida "Case-study", "Debat", "Loyiha asosida o'qitish", "Aqliy hujum" kabi interfaol metodlarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Natijalar qiyosiy-statistik usul yordamida umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida an'anaviy reproduktiv ta'lim metodlari talabalarining kreativ faolligini yetarli darajada rivojlantirmasligi aniqlandi. Xususan, faqat ma'ruza asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalarining mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari past darajada qayd etildi. Interfaol metodlardan foydalanilgan guruhlarda esa kreativ yondashuv ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Tajriba jarayonida loyiha asosida o'qitish texnologiyasi eng samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur metod talabalarni muammoni mustaqil tahlil qilishga, innovatsion yechimlar ishlab chiqishga va jamoaviy faoliyat yuritishga undaydi. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarining refleksiv tafakkurini rivojlantirdi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kreativ kompetensiyani shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Raqamli platformalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari talabalarni mustaqil izlanishga va kreativ mahsulot yaratishga yo'naltirdi.

Muallifning kuzatishlariga ko'ra, kreativ kompetensiyaning rivojlanishi pedagogik moslashuvchanlikni oshiradi. Chunki kreativ pedagog standart vaziyatlarda emas, balki noaniq pedagogik sharoitlarda ham samarali faoliyat yuritadi. Shu jihatdan kreativlikni faqat estetik yoki individual sifat sifatida emas, balki ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida quyidagi tendensiyalar aniqlandi: kreativ muhit mavjud bo'lgan guruhlarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi; interfaol metodlar talabalar motivatsiyasini oshirdi; refleksiv tahlil elementlari pedagogik tafakkurni rivojlantirdi; mustaqil loyiha faoliyati innovatsion fikrlashni shakllantirdi. Natijalar kreativ kompetensiya pedagogning professional kapitalini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

*Birinchi*dan, kreativ kompetensiya zamonaviy pedagogning integral kasbiy sifati bo'lib, u pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, kreativlikni rivojlantirish jarayoni faqat individual qobiliyat bilan emas, balki ta'lim muhitining innovatsion tashkil etilishi bilan ham chambarchas bog'liq.

*Uchinchi*dan, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar kreativ kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik vositalari sifatida namoyon bo'ladi.

*To'rtinchi*dan, kreativ kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligi, kasbiy mobilligi va refleksiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- pedagogika OTMlarida kreativ laboratoriyalar tashkil etish;
- ta'lim dasturlariga kreativ pedagogika modullarini kiritish;
- pedagoglar uchun kreativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazish;
- loyiha asosida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- talabalarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish.

Shunday qilib, kreativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ellis Paul Torrance Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington: Personnel Press.
2. Robert Sternberg Sternberg, R. J. (2006). The Nature of Creativity. Creativity Research Journal, 18(1), 87–98.
3. Ken Robinson Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Oxford: Capstone Publishing.
4. N. A. Muslimov Muslimov, N. A. (2019). Pedagogik kompetentlik va kreativ yondashuv asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
5. O'. Q. Tolipov Tolipov, O'. Q., & M. Usmonboyeva Usmonboyeva, M. (2017). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
6. B. X. Xodjayev Xodjayev, B. X. (2020). Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi. Toshkent: Tafakkur.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.